

"MEAL" KONSEPTINI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

N.P.Imamov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti v.b dotsenti

Ruzmametov Bexruz

MS-125 guruh talabasi

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.12.2025

Revised: 20.12.2025

Accepted: 21.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*konsept, freym, skript,
"meal", ovqatlanish,
lingvokulturologiya, ingliz tili,
o'zbek tili, milliy xususiyat.*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola "meal" (ovqatlanish) konseptini kognitiv tilshunoslikning freym va skript nazariyasi asosida modellashtirishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi ushbu konseptga oid leksik birliklar, so'z birikmalari va iboralar sistemalashtirilgan. "Meal" konseptining konnotativ ma'nosi va u frazeologizmlar orqali ingliz lingvokulturologiyasidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, ovqatlanish jarayonining milliy va oilaviy an'ana sifatidagi xususiyatlari, o'zbek va ingliz udumlari nomlaridagi farqlar hamda tarjimada milliy xususiyatlarni saqlash masalalari ko'rib chiqilgan.

Kontseptni modellashtirish uchun kognitivistikaning birliklaridan bo'lgan freym, skript, va boshqa shu kabi aniq strukturaga ega bo'lgan tushunchalaridan foydalaniladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi "meal" kontseptining leksik materialni sistemalashtirish va "meal" kontseptini modellashtirish uchun freymlar va shuningdek mazkur so'zga yaqin bo'lgan so'z birikmalari va iboralarning qo'llanilishi va ularning strukturaviy ko'rinishiga e'tibor qaratamiz.

"Ovqatlanish jarayonlari" ingliz semantik maydonidagi birikmalarning konnotativ tarkibi mohiyati ta'kidlangan "meal" kontseptning umumiy va o'zga xos tafsifini aniqlashga bag'ishlangan bo'lib, bu konsept ingliz so'zlari, so'z birikmalari, frazeologik birikmalar maqol va aforizmlarda namoyon bo'lishi hamda ushbu kontseptlar iengliz lingvokulturologiyasida o'ziga xos o'ringa ega va ular "meal" freym modeli ichida tahlil etiladi.

Mazkur bobda "meal" kontsepti tarkibi tuzulishi va ushbu kontsept tomonidan ifodalanadigan lingvokulturologik xususiyatlarga ta'rif beriladi, unga ko'ra freym

tilshunoslik yo'nalishidagi kontsept bo'lib, shaxs ongida paydo bo'lgan tushuncha va sohaga talluqli bilimning tilda tadbiq etishni amalga oshirish uchun qo'llaniladi. Shu o'rinda ingliz til madaniyatida "meal" kontseptining turli milliy va madaniy tushunchalar bilan aloqadorligi taqdim etiladi. He was very reluctant to take precedence of so many respected members of the family, by beginning the round of stories they were to relate as they sat in a good circle by the Christmas dinner...(Charles Dickens,34).

Keltirilgan misolda Christmas dinner tushunchasi oilaviy marosim sifatida ingliz xalqining o'ziga xos odatiy, oilaviy munosabatlarni aks ettiradigan jarayon sifatida o'z ifodasini topadi. Albatta ingliz tili etnosining tarixiy taraqqiyotida bu kabi madaniy xususiyatlarning davrlar aro hamda diniy ta'sir natijasida shakllangan o'ziga xos hodisa sifatida madaniy udumga aylanganligini kuzatish mumkin. Odatiy xususiyatlar faqatgina ma'lum bir o'sha etnosga tegishli bo'lib qolmasdan, ma'lum bir individning o'ziga xos xususiyati sifatida ham aks etishi kuzatiladi. Masalan: But, if you do me the honour to invite a person, you love to have a meal I shall be scrupulously accurate in all cases relating to them(Charles Dickens, 34); It is supposed, unless I have a lunch with the family I'd be so grateful. (Charles Dickens, 34-35).

Ta'kidlanganidek "have a lunch" tushunchasi orqali individ vaziyat yoki boshqa shaxsga nisbatan bo'lgan munosabatini mazkur jarayon orqali yaxshilashga qaratgan. Albatta bu xususiyatlar, ya'ni bironi tushlikka taklif etish va shu orqali mulozamat ko'rsatish ingliz etnosining o'ziga xos ajralmasi bo'lagi hisoblanadi. Mazkur hol ingliz etnosining tarixiy madaniy taraqqiyotida to'plagan odati hisoblanadi. Ingliz etnosida "ovqatlanish" jarayoni o'ziga xos oilaviy an'ana sifatida, va shu jarayon davomida ba'zi masalalarni hal qiladigan vaziyat sifatida ham namoyon bo'ladi. Masalan: We are rather a musical family, and we discussed how to avoid Christina on depression when gathered (Charles Dickens, 48).

Albatta mazkur hol barcha ingliz oilasiga tegishli hol deyishdan yiroqmiz. Lekin keltirilgan misol ko'rsatadiki, "ovqatlanish jarayoni" nafaqat insonning ozuqaga bo'lgan ehtiyojini qondirish, balki, o'ziga xos masalalarni yechimini topishga qaratilgan jarayon deb ham tushunish mumkin. Shuningdek ovqatlanish jarayoni ba'zi ingliz oilalarida o'ziga xos udum an'ana, odat bo'lib qolgan holat sifatida ham talqin qilinadi. Masalan: yoki u holatda qarindoshlar qanday yo'l tutishi kerak degan an'analarga tayanib qoladi. Masalan: Our family are used to dine together at Christmas (Charles Dickens, 47).

Inglizlarda ovqatlanish jarayonlarining o'ziga xos an'naviy jihatlari borligi, ya'ni har bir oilaning o'ziga xos ovqatlanish traditsiyasining mavjudligi bilan ham ingliz tilida "meal" kontsept sifatida aks eta olish imkoniyati mavjudligini kuzatish mumkin. Masalan: Of course he couldn't be under gardener, and be always about, in the summer time, near the windows on the lawn, having tea without getting acquainted with the ways of the family (Charles Dickens, 145).

Tanlangan mavzuning "Meal" atalishi ham konseptni kelib chiqish tushunchasiga qarab ma'lum ma'noda quyidagi freym modellariga ajratish mumkin; terminal 1-ovqatlanish (zamonaviy tushuncha sifatida) ozuqaga bo'lgan ehtiyojni qondirish; terminal 2- ma'lum oilaga tegishli urf, odat, marosim; terminal 3- ovqatlanish madaniyati; terminal 4- tarixiy madaniy shakllangan odat.

Baynalmilallik bilan bir qatorda milliylik xususiyatini ham o'zida mujassam etgan tilning lug'at tarkibi o'zi mansub bo'lgan til jamoasining moddiy-ijtimoiy hayotini, chunonchi, milliy urf-odat va an'analarini, geografik tasavvurini, ma'naviyati va dunyoqarashini, diniy e'tiqodini, axloqiy me'yorlarini, tafakkur yo'nalishini moddiy aks ettiradi. Tillar orasidagi tafovut esa odatda bir xalq moddiy hayotida mavjud muayyan tushunchalar, voqea-hodisalar, urf-odatlarning ikkinchi xalq turmush tarzida uchramasligi, shu tufayli ular nomlarining ham ayni xalq tilida tabiiy ravishda yo'qligi bilan izoxlanadi. Bundan tashqari, lug'aviy ekvivalentlik munosabatida bo'lgan ayrim ikki til juftliklari bir-birlaridan biror xususiyatlari bilan o'ziga xos ravishda farq qilishlari mumkin. Bu hol til birliklarining milliy xususiyatini belgilash baravarida ularning tarjimada o'zaro almashinuvlariga to'sqinlik qiladi.

Asliyatning o'ziga xosligi asosan uning tarkibidagi lisoniy vositalarning milliy xususiyati bilan belgilanar ekan, asliyatning badiiy-g'oyaviy zaminini asliymonand tiklash asarning milliy bo'yog'ini qayta yaratish bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham tarjimada milliy xususiyatni tiklash masalasi keyingi paytlarda tarjimonlarning ham, tarjimashunoslarning ham e'tiborini o'ziga borgan sari ko'proq tortib kelmoqda. Chunki tarjimaviy nuqsonlarning ko'pchiligi milliy xususiyatni aks ettiradigan til vositalari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Zero, tarjima amaliyotida hanuzgacha yo'l qo'yib kelinayotgan xato va kamchiliklarning ko'pchiligi tarjimada milliy xususiyatni tiklash bilan bog'liq bo'lib, bu masala hanuzgacha nazariy jihatdan ham, amaliy xususdan ham qoniqarli darajada hal qilingan emas.

Ilmiy adabiyotda xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan leksik birliklarni qaysi paytlarda tarjima amaliyotining qanday sinalgan usullari vositasida talqin etish lozimligi xaqida yagona fikr uchramaydi.

O'zbeklar uchun dasturxon dustlik va qarindoshchilik rishtalari jiddiy qabul qilinadi va aniq hurmat tushunchalari va o'ziga xos vazifa va burchlar asosida quruladi. O'zbek oilalarida amakivachchayu xolavachchalar o'zaro yaqin muloqot qilishadi va hatto bir-birlarining shaxsiy ishlariga to'g'ridan-to'g'ri munosabat bildirishadi. Dasturxon umuman ovqatlanish jarayoni nomlari ham o'ziga xos nomlarga ega: nonushta, tushlik, kechki nonushta, ziyofat, bazmi jamshida va boshqalar. Bu yerda shuni aytish joizki, bu kabi nomlarlar balkim ushbu etnik guruhning asrlar davomida shakllangan mentalitetga bog'liqdir. Ingliz til madaniyatida ovqatlanish jarayoni birlamchi, ikkilamchi va hokazo darajalarda keskin farq qiladi va ovqatlanish jarayoning har biri o'zgacha nomlanadi: breakfast, lunch, dinner, supper, late supper va hakoza.

=====

Ingliz tilida meal darajasini aniqlashda “dinner “ so’zi atrofida tushlik yoki kun davomida iste’mol qilinadigan asosiy taomga nisbatan qo’llaniladi.

dinner 1. Birinchi tushlik (first-, full-); second- asosiy taom; first- obce removed- asosiy ovqat turi. 2. Tushlik payti.

supper 1. Kechki ovqat turi; 2. Ziyofat turi, kechki ovqatga biror kishini taklif etish.

Keltirilgan ba’zi frazeologik birliklar rus tili tarjimasidan olinganligi sababli rus va ingliz tillaridagi ovqatlanish jarayoni munosobatlarda o’xshashlik inversiyasi mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Ingliz tili frazeologiyasida supper so’zi bilan bog’liq quyidagi fraza va moqollar mavjud bo’lib, ular ingliz tili nutqida, lingvomadaniyatida o’ziga xos o’ringa ega hisoblanadi va ushbu iboralar ingliz milliy xususiyatlarini ochib berish uchun ham xizmat qiladi. No supper, no song-jon qiynamasang jonona qayda, toqqa chiqmasang do’lana qayda; sing for ones supper-mehnatiga yaarasha. Taomlar ham o’z shakliga ko’ra, suyuqlik sifatida va “quyuq” taom sifatida birinchi va ikkinchi hatto uchunchi va to’rtinchi kabi turlarga ham bo’linadi. O’zbeklarda bu xildagi ovqat turlari bilan bog’liq so’zlar yordamida yasaladigan iboralar yoki maqollar tadqiqot daomida uchramadi. Shunday qilib, o’zbeklarda boshqa munosabatidagi, ya’ni taom turlari bilan bog’liq maqollar mavjud bo’lib ular haqida odingi bobda to’xtalgandik.

Ingliz tilida ichkilik ham o’ziga xos iboralarda qarindoshchilikni anglatuvchi iboralarni tashkil etadi: The Godwins had always acted as if they were a cut above their neighbours and it was a great blow to their family pride to have to acknowledge this dirty drunken old fellow as a relative (ODCIE).

Lunch. Tushlik oldidan yengil qabul qilinadigan taom

Bu slot ichidagi munosabatlarni tahlil qilib shuni ta’kidlash lozimki, boshqa mamlakatlarga nisbatan farqliroq inglizlarda oilaviy va nooilaviy qabul qilinadigan taom turi va bu o’ziga xos ehtiyoj qondirish vositasidir. Ingliz xarakterining vazminligi, bosiqliqi, hayotga moslashuvchanligi ibratlidir bu esa o’z navbatida emotsiya ,his-hayajonlarga qarshi aql-zakovat, tarbiya ustuvorligini ko’rsatadi: : “...for married woman should never love...”(J.Galsworthy).

Meal kontseptini nafaqat lingvistik birlik, balki ingliz va o’zbek lingvomadaniyatining ajralmas qismi sifatida tahlil qilib, uning milliy-madaniy xususiyatlarini kognitiv freym modeli orqali ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Minsky, M. A. A Framework for Representing Knowledge. McGraw-Hill, 1975. (Freym nazariyasining asoschisi)

2.Fillmore, C. J. Frame Semantics and the Nature of Language. Annals of the New York Academy of Sciences, 1976. (Freym semantikasiga oid asosiy ish)

=====

3. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press, 1980.
(Metoforik konseptualizatsiya bo'yicha fundamental ish)

4. Слышкин, Г. Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты. Волгоград: Перемена, 2004. (Rus lingvokulturologiyasi bo'yicha manba)